



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No5(5)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 330 sahifa,
22-may, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

- Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Matematika fanini o'qitishda kommunikativ va ijtimoiy-psixologik yondashuvlar	10
<i>Esonturdiyev Mamatqobil Nurmatovich</i>	
Geografik axborot tizimlari (GAT) texnologiyalari asosida bo'lajak geografiya o'qituvchilarining innovatsion kompetentligini rivojlantirish metodikasi	13
<i>Bahromova Muhayyo Imomqul qizi</i>	
Geografiya ta'limida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning nazariy-metodik asoslari	18
<i>Tuyg'unov Murodjon Salimqul o'g'li</i>	
Biologiyani o'qitishda belgili-ramziy ko'rgazmalilik vositalaridan foydalanishning o'quvchilarning tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirishdagi roli	22
<i>Azimov I. T., Daminova F. A.</i>	
PISA 2025 doirasida raqamli ta'lim kompetensiyalarini baholashning innovatsion mexanizmlari	25
<i>Doniyorov Muxiddin Normamatovich, Ishanov Almat Adilxanovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tabiiy savodxonligini oshirishda zamonaviy pedagogik vositalarni qo'llash	28
<i>Abdunazarov Bobir Normurodovich</i>	
Raqamli ta'lim resurslari asosida kredit-modul tizimida talabalarning o'quv faoliyatini takomillashtirish	32
<i>Jumayeva Ra'no To'ychi qizi</i>	
Oila va maktab integratsiyasining shaxs kamolotiga ta'siri	36
<i>Rasulova Dildora Shuhratovna, Raxmatova Zulxumor Alimovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda kreativ kompetensiyani shakllantirishning zamonaviy pedagogik mexanizmlari va uning ijtimoiy ahamiyati	40
<i>Sultanova Sahobar Ravshanbekovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik tarbiyani shakllantirishda tabiiy fanning o'rni	43
<i>G'afforova Zarnigor Abdumo'min qizi</i>	
Umumiy o'rta ta'limda o'qituvchi va ota-onalar ijtimoiy hamkorligini rivojlantirish	47
<i>Xalikova Zaxro Mirshadmanovna, Xolbo'tayev Muzaffar Odilovich, Bozorova Xadicha Javlon qizi</i>	
Nutqida kechikish kuzatiladigan bolalarda nutqni qo'l va barmoq motorikasini rivojlantiruvchi o'yinlar orqali shakllantirish	51
<i>Ne'matova Hilola Ikrom qizi, Ahmadova Fotima Adizovna</i>	
Taym menejment asosida bo'lajak o'qituvchilarda liderlik fazilatlarini rivojlantirish	55
<i>Soliyeva Ruxsora Sharobiddin qizi</i>	
Sun'iy intellekt va NLP texnologiyalari asosida elektron ta'lim muhitida talabalarning mustaqil ta'lim kompetensiyalarini rivojlantirish	58
<i>Otakishiyeva Gulshano Abdulaziz qizi</i>	
Pedagogik kvalimetriya asosida bo'lajak o'qituvchilarning diagnostik madaniyatini shakllantirishning nazariy asoslari	61
<i>G'aniyeva Muattarxon Nodirbek qizi</i>	
Образовательные технологии с учётом восприятия цвета: психологические и методические аспекты	64
<i>Имамова Хурият Эргаш кизи</i>	
Yosh erkin kurashchilarda chidamlilikni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish	69
<i>Ergashov Qaxramonjon Asqarovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini mantiqiy masalalar yechishga o'rgatish usullari	76
<i>G'iyosova Dilovar Orif qizi</i>	
Haykaltaroshlik fanining metodik qo'llanilishi	80
<i>Qodirov Bobirjon Botirjonovich</i>	
Ijtimoiy xavf ostidagi bolalarni qo'llab-quvvatlashning jahon tajribasi va psixologik-pedagogik asoslari	85
<i>Manzura Qosmuratova</i>	



Jahonda art-biznes klasterlarining ahamiyati va rivojlanish tuzilmasi.....	89
<i>A. S. Umarov</i>	
Автоматизация решения сложных математических задач графическим методом для углублённого изучения математики в школе	92
<i>Эргашев Серожиддин Султонмуродович, Маматов Исломбек Ильесович</i>	
Pedagogika darslarida raqamli va onlayn didaktik o'yinlardan foydalanish.....	97
<i>Qodirova Feruzaxon Abdiyaminovna</i>	
Sun'iy intellekt va tanqidiy fikrlashning kognitiv-konseptual komponenti va uni rivojlantirish metodikasi	102
<i>Sobirova Munavvarxon Qaxramonjon qizi</i>	
Media savodxonlik va axborot madaniyati fanida sun'iy intellekt savodxonligini rivojlantirishning pedagogik-metodik asoslari	106
<i>Ermatov Sherzodbek Latipjonovich, Mirzayev Akramjon O'ktamjonovich</i>	
Adabiy ta'limda kompetensiyaviy yondashuv	111
<i>To'ychiyeva Mahfuza Umarkulovna, Islomova Shalola Ismoil qizi</i>	
Comparative Study of Passive Constructions in English and Their Translation Into Uzbek.....	117
<i>Elmirzayeva Maftuna Dusmurod qizi, Mustafoyeva Nigina Shuhrat qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish orqali pedagogik mas'uliyatni shakllantirishning dolzarb muammolari	122
<i>Botirova Odinaxon Abdumutalib qizi</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida mustaqil ta'limni tashkil etishning pedagogik modeli va metodik asoslari	126
<i>Haytbayeva S. R.</i>	
Imkoniyati cheklangan bolalarni psixologik qo'llab-quvvatlash orqali intellektual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish imkoniyatlari.....	131
<i>Kadirova Nigora Saxibjanovna</i>	
Bo'lajak maktabgacha ta'lim mutaxassislarini dual ta'lim asosida kasbiy faoliyatga tayyorlashning nazariy asoslari.....	134
<i>Samiyeva Zuleyxa Uktamovna</i>	
Insonlar orasidagi munosabatlarda noverbal muloqotning komponentlarining ko'rinishlari	139
<i>Soliyev Farxodjon Sodikovich, Karimov Jahongirjon Murodjon o'g'li</i>	
Virtual texnologiyalar vositasida texnika fanlarini o'qitish mazmunini innovatsion rivojlantirish	145
<i>Yuldasheva Dilorom Husniddin qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida suzish mashg'ulotlarini tashkil etish texnologiyasi.....	150
<i>Toshpulatova Aziza Toyirovna</i>	
Harbiy xizmatchilarda kreativ tafakkurni rivojlantirishning pedagogik va psixologik asoslari	155
<i>Tursunov Shaxzod Ramazonovich, Mansurov Sardorbek Sirojiddin o'g'li</i>	
O'qituvchilar ruhiy salomatligini saqlashning amaliy strategiyalari	159
<i>Begmatov Raximkul Olimovich</i>	
Ona tili darslarida analitik faoliyatni tashkil etish imkoniyatlari	164
<i>Narziyeva Mastura Sunnatovna</i>	
Maktabgacha ta'limda Project-Based learning texnologiyasi asosida tarbiyalanuvchilarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari	168
<i>Kubayeva Mavluda, Po'latova Gullola Ravshan qizi</i>	
Talabalarda iqtisodiy savodxonlikni shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari	173
<i>Qo'chqorov Nodir Bozorovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini baholash jarayonida foydalaniladigan texnologiyalar va vositalar	178
<i>A'zamqulova Zilola Sunnat qizi</i>	
Raqamli ta'lim muhitida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning didaktik asoslari.....	183
<i>Isaboyeva Dilyora Zokirjon qizi</i>	
Kimyo fanining tarixiy rivojlanishida metodologik yondashuvlar	187
<i>Begamov Shaxzod To'liqin o'g'li</i>	
Sport bilan shug'ullanishda qo'l va oyoq motorikalarini rivojlantirish mezonlari	190
<i>Imomov Asliddin Abdurazoqovich, Sattarov Qarshiboy Narqulovich</i>	

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

O'zbek va ingliz tillarida zamon kategoriyasining qiyosiy tahlili.....	194
<i>Xudoyberdiyeva Dilfuza Alisher qizi</i>	
Hayot faoliyati xavfsizligi fani o'qituvchisining kasbiy kompetentligi va rejalashtirish faoliyati.....	198
<i>Maxmudov Baxtiyor Xayrullayevich</i>	
Dizartriyali bolalarda motorikani rivojlantirish – nutqni rivojlantirishning asosiy omili	202
<i>Mamatova Muzayyana Batirovna</i>	
Expression of Lexical Economy in English and Uzbek Through Stylistic Means	205
<i>Omonov Baxtiyor Uktamovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodiy qobiliyatni shakllantirish.....	208
<i>Abrorxonova Kamolaxon Abrorxon qizi, Xamzayeva Sunbula Jasurovna</i>	
Xushmuomalalik strategiyalarining ijtimoiy vazifalari.....	212
<i>Alieva Navruza Xabibullayevna, Azizova Sanobarxon Valijon qizi</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida shaxslilik sifatlarining kasbiy rivojlanishdagi psixologik ahamiyati	216
<i>Dusmetova Maksuda Matnazarovna</i>	
Maktabgacha ta'lim jarayonida bo'lajak tarbiyachilarning ilustrativ yondashuv asosida kreativ va variativ faoliyat olib borish usullari va yo'llari.....	221
<i>Egamberdiyeva Madina Sharif qizi</i>	
Pragmatic Functions in Neurolinguistic Communication	224
<i>Fayziyeva Parvina</i>	
Sahro gavhari: ruslar istilosigacha bo'lgan davrda Xiva me'morchiligi tarixi	227
<i>Islomjon Xoljigitovich Mirzakulov</i>	
Moslashuvning psixologik mexanizmlari: ta'lim muhiti sharoitida shaxsning adaptatsiyasi.....	235
<i>Jaynarova Sayyora Isoqul qizi, Nuraliyeva Nasiba</i>	
Onalik psixologiyasi va o'rganishning nazariy jihatlari.....	238
<i>Kasimova Xulkar Atabayevna</i>	
Spheres of Language Use.....	243
<i>Kumakbayeva Gulbanu Kuntuarovna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarida kreativ tafakkurni rivojlantirishda nostandart topshiriqlar metodikasi.....	246
<i>Muxammadiyeva Dinora Tursunpulatovna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy-axloqiy qadriyatlarni shakllantirishning pedagogik mexanizmlari va didaktik tamoyillari.....	251
<i>N. Jurayev</i>	
Dunyo bolalari huquqlarini himoya qilish: global muammolar, tizimli kamchiliklar va tanqidiy tahlil	255
<i>Nargiza Ergasheva</i>	
Talabalarining dasturlashga oid agoritmik fikrlashini rivojlantirish orqali innovatsion faoliyatga tayyorlash usuli	259
<i>Orziqulova Barchinoy Ixtiyor qizi</i>	
Talabalarda o'z-o'zini boshqarish qobiliyatining tuzilmasi va psixologik komponentlari (motivatsion, kognitiv, irodaviy, emotsional-regulyativ komponentlar)	264
<i>Otabekova Nargiza Avazbek qizi</i>	
O'zbek va ingliz tillaridagi metaforalarda til va madaniyat uyg'unligi.....	269
<i>Rasulova Munajat Akmaljonovna</i>	
Limitlar nazariyasini kompyuter imitatsion modellar vositasida o'qitish metodikasi.....	273
<i>Safarov Abbas Abdurasul o'g'li</i>	
Ijtimoiy hamkorlik – barkamol avlodni tarbiyalash poydevori.....	278
<i>Sharipova Gulruxsor Nurkabilovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda kreativ kompetensiyani shakllantirishning zamonaviy pedagogik mexanizmlari va uning ijtimoiy ahamiyati.....	282
<i>Sultanova Sahobar Ravshanbekovna</i>	
Badiiy gimnastika mashg'ulotlarida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish	285
<i>Tuxtayeva Azizabonu Abdurasulovna</i>	



Matematika fanini o'zlashtirishda boshlang'ich sinf o'quvchilarining semiotik yondashuvini shakllantirish ...	289
<i>Xayrullayev Ismatulla Nurullayevich</i>	
Pedagogik qadriyatlar asosida o'quvchilarni tarbiyalash mexanizmlarini takomillashtirish	293
<i>Xoliqova Inobatxon Bo'ri qizi</i>	
Umumta'lim maktabida elektron axborot-ta'lim resurslari.....	296
<i>Xolmurodov Shuxrat Okboevich, Norqobilov Hakimbek Nuriddin o'g'li</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolaning kreativligini shakllantirishda innovatsion muhit	300
<i>Xonnazarova Gulasal Yusuf qizi</i>	
Ta'lim tizimida sinf rahbari faoliyatining joriy etilishining tarixiy asoslari va zamonaviy ko'rinishlari	303
<i>Xusenova Sadoqat Botirovna</i>	
Искусственный интеллект в методике преподавания русского языка: адаптивная обратная связь и развитие коммуникативной компетенции	308
<i>Джалилова Феруза Намазовна</i>	
Образовательные технологии с учётом восприятия цвета: психологические и методические аспекты.....	312
<i>Имамова Хурият Эргаш кизи</i>	
Межкультурный диалог как инструмент воспитания гармоничной личности в школе	317
<i>Махмудхожаев Ориф Бахтиёрович</i>	
Психологические факторы успешности профессионального обучения студентов	319
<i>Рахимходжаева В. С.</i>	
Специфика восприятия окружающего мира в лирике Афанасия Фета	325
<i>Татьяна Викторовна Половинкина</i>	

ONA TILI DARSLARIDA ANALITIK FAOLIYATNI TASHKIL ETISH IMKONIYATLARI

Narziyeva Mastura Sunnatovna

Buxoro viloyati pedagogik mahorat markazining
Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikalari kafedrası
katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Umumta'lim maktablari sharoitida o'quvchilarning til birliklarini ongli tahlil qilish, matni dalillarga tayangan holda talqin etish va xulosalash ko'nikmalarini rivojlantirishning didaktik hamda metodik mexanizmlari yoritiladi. Tadqiqotning maqsadi ona tili ta'limida analitik faoliyatni tizimli tashkil etish imkoniyatlarini aniqlash hamda uning komponentlari va bosqichlarini asoslashdan iborat. Metodologik asos sifatida kompetensiyaviy va faoliyatga yo'naltirilgan yondashuvlar, didaktik modellashtirish, sinf amaliyoti kuzatuvlari hamda o'quv topshiriqlarining kontent-tahlili qo'llanildi. Ilmiy yangilik analitik faoliyatning predmetga xos modeli, indikatorlari va natijalarni o'lchash mezonlarini yaxlit tizim sifatida taklif etish, shuningdek, morfologik, sintaktik va matn tahlilini integratsiyalovchi dars dizaynini asoslash bilan belgilanadi. Amaliy jihatdan darsni rejalashtirish, topshiriqlarni differensiallash hamda baholashni mezonli tashkil etishga oid metodik yechimlar taklif etiladi.

Kalit so'zlar: analitik faoliyat; ona tili darsi; til birliklari tahlili; matn tahlili; topshiriqlar dizayni.

Abstract: Didactic and methodological mechanisms for developing students' skills of conscious linguistic analysis, evidence-based text interpretation, and reasoned conclusion-making within general secondary education are examined. The purpose of the study is to identify opportunities for the systematic organization of analytical activity in mother tongue education and to substantiate its components and stages. The methodological framework includes competency-based and activity-oriented approaches, didactic modeling, classroom observation, and content analysis of learning tasks. Scientific novelty lies in proposing an integrated subject-specific model of analytical activity with measurable indicators and assessment criteria, as well as a lesson design that combines morphological, syntactic, and textual analysis into a coherent framework. From a practical perspective, methodological solutions for lesson planning, task differentiation, and criterion-referenced assessment are proposed.

Key words: analytical activity; mother tongue lessons; linguistic analysis; text analysis; task design; criterion-referenced assessment.

Аннотация: Раскрываются дидактические и методические механизмы развития у учащихся общеобразовательных школ навыков осознанного анализа языковых единиц, интерпретации текста на основе доказательств и формулирования выводов. Цель исследования заключается в определении возможностей системной организации аналитической деятельности в обучении родному языку, а также в обосновании её компонентов и этапов. В качестве методологической основы использованы компетентностный и деятельностно-ориентированный подходы, дидактическое моделирование, наблюдение за учебным процессом и контент-анализ учебных заданий. Научная новизна исследования заключается в предложении целостной системы, включающей предметно-ориентированную модель аналитической деятельности, её индикаторы и критерии оценки результатов, а также в обосновании структуры урока, интегрирующей морфологический, синтаксический и текстовый анализ. Практическая значимость определяется разработкой методических решений по планированию уроков, дифференциации заданий и организации критериального оценивания.

Ключевые слова: аналитическая деятельность; урок родного языка; анализ языковых единиц; анализ текста; дизайн заданий; критериальное оценивание.

KIRISH

Ona tili ta'limi nafaqat me'yoriy savodxonlikni shakllantirish, balki o'quvchining til hodisalarini kuzatish, ularni dalillarga tayangan holda tahlil qilish va umumlashirish qobiliyatini rivojlantirish orqali intellektual taraqqiyotga xizmat qiladigan fan sifatida ham talqin etiladi. Maktab amaliyotida esa ko'pincha qoidani eslab qolish, tayyor ta'rifni takrorlash va mashqlarni namunaga ko'ra bajarish ustuvor bo'lib qoladi. Buning oqibatida o'quvchi tilning tizimli tabiatini, birliklar o'rtasidagi semantik va funksional munosabatlarni chuqur anglashga kamroq



kirishadi. Zamonaviy pedagogik adabiyotlarda ta'lim natijalarini kompetensiyalar orqali ifodalash, o'quv faoliyatini muammoli vaziyatlar asosida tashkil etish va fikrlash amallarini ongli ravishda boshqarishga yo'naltirish zarurligi ta'kidlanadi ^[6].

Ona tili darslarida analitik faoliyat, bir tomondan, lingvistik bilimning o'zlashtirilish darajasini ko'rsatadigan indikator, ikkinchi tomondan esa o'quvchining o'qish, yozish va muloqot kompetensiyalarini uyg'un ravishda rivojlantiradigan mexanizm bo'la oladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mavjud yondashuvlar tanqidiy tahlil qilinganda, lingvistik tahlil ko'nikmalarini shakllantirishda ikki qarama-qarshi tendensiya ko'zga tashlanadi.

Birinchi tendensiyada tahlil ko'proq formal-grammatik sxemalarga qisqartiriladi: so'z turkumlarini ajratish, gap bo'laklarini topish, qoidaga mos misollar keltirish singari amallar ustuvor bo'lib, matnning ma'nodosh qatlamlari, pragmatik vazifasi va uslubiy qiymati ikkinchi planga suriladi.

Ikkinchi tendensiya esa, aksincha, faqat kommunikativlikka urg'u berib, tildagi tizimlilikni "ortiqcha nazariya" sifatida chetlab o'tishga moyillik ko'rsatadi. Natijada o'quvchi matn mazmunini sezadi, ammo til vositalarining qanday ishlashini asoslab bera olmaydi. Didaktik tadqiqotlar analitik faoliyatni aynan tizim va nutq birligida, ya'ni til birliklarining matnda bajaradigan funksiyasi orqali o'rgatish samaraliroq ekanligini ko'rsatadi ^[1:5].

Shuningdek, Bloom taksonomiyasi va unga tayangan baholash amaliyoti o'quv topshiriqlarini reproduktiv darajadan tahlil, sintez va baholash darajalariga ko'tarish zarurligini metodik jihatdan asoslaydi ^[7].

Demak, ona tili darslarida analitik faoliyatni tashkil etish masalasi dolzarb bo'lib, u o'quv dasturi mazmuni, topshiriqlar dizayni, o'qituvchining savol-javob strategiyasi va baholash mezonlari uyg'unligida hal etiladi.

Tadqiqotning maqsadi ona tili darslarida analitik faoliyatni tashkil etish imkoniyatlarini aniqlash va predmetga mos didaktik modelni taklif etishdan iborat. Vazifalar quyidagilarni qamrab oladi:

- analitik faoliyatning tarkibiy komponentlarini (kuzatish, taqqoslash, tasniflash, dalillash, xulosalash) ona tili mazmuni bilan moslashtirish;
- dars jarayonida analitik faoliyatni bosqichma-bosqich shakllantirish mexanizmlarini ishlab chiqish;
- o'quv topshiriqlarini tahlil darajalar bo'yicha loyihalash mezonlarini belgilash;
- natijalarni mezonli baholash indikatorlarini taklif etish.

Ilmiy yangilik sifatida analitik faoliyatning lingvistik va metodik o'lchamlarini birlashtiradigan integrativ model, shuningdek, morfologiya, sintaksis va matn tahlilini yagona o'quv trayektoriyasiga bog'lovchi dars dizayni konsepsiyasi asoslanadi. Amaliy ahamiyati esa o'qituvchiga darsni rejalashtirishda, savollarni konstruksiyalashda, differensial topshiriqlarni tuzishda va baholashni shaffof mezonlar asosida olib borishda metodik tayanch berishi bilan izohlanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda analitik faoliyatni ona tili darslari kontekstida izohlash uchun kompetensiyaviy va faoliyatga yo'naltirilgan yondashuvlar metodologik asos sifatida qabul qilindi. Kompetensiyaviy yondashuv o'quv natijasini faqat bilimlar majmui sifatida emas, balki vaziyatda qo'llanadigan amaliy-intellektual harakatlar tizimi sifatida talqin etadi. Faoliyat yondashuvi esa bilimning shakllanishini o'quv harakati tuzilmasi, motiv va refleksiya bilan bog'laydi ^[6].

Ma'lumotlar bazasi sifatida umumta'lim maktablarida qo'llaniladigan ona tili darsliklaridagi mashq va topshiriqlar korpusi, shuningdek, sinf amaliyotida uchraydigan savol-javob va tahlil namunalarning kuzatuv yozuvlari olindi. Tadqiqot dizayni uch yo'nalishda tashkil etildi:

- *birinchidan*, nazariy tahlil orqali analitik faoliyatning lingvodidaktik talqini va komponentlari aniqlashtirildi;
- *ikkinchidan*, kontent-tahlil yordamida topshiriqlarning qaysi qismi reproduktiv, qaysi qismi tahlil harakatlarni talab qilishi tasniflandi;
- *uchinchidan*, didaktik modellashtirish orqali darsning analitik "zanjiri"ni tashkil etuvchi bosqichlar va o'tish mexanizmlari ishlab chiqildi.

Metodologik tanlovning asosligi shundaki, ona tili ta'limida tahlil ko'nikmasi bir vaqtning o'zida bilish amali, nutqiy faoliyat va baholash mezonlari bilan bog'langan murakkab hodisa bo'lib, uni faqat bitta usul bilan tushuntirish yetarli emas. Shu sababli yondashuvlar kombinatsiyasi qo'llanildi ^[2].

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijasida ona tili darslarida analitik faoliyatni tashkil etishning integrativ modeli taklif etildi. U uch qatlamdan iborat deb belgilandi: lingvistik mazmun qatlami, kognitiv amallar qatlami va didaktik boshqaruv qatlami. Lingvistik mazmun qatlami til birliklarini uch darajada qamrab oladi: soʻz va shakl darajasi (morfologik tahlil), gap va konstruktsiya darajasi (sintaktik tahlil), matn va diskurs darajasi (mazmun, kompozitsiya, bogʻlanish vositalari). Kognitiv amallar qatlami analitik faoliyatning ketma-ketligini belgilaydi: kuzatish va ajratib koʻrsatish, taqqoslash va qarama-qarshi qoʻyish, tasniflash va umumlashtirish, dalillash va izohlash, xulosalash hamda transfer. Didaktik boshqaruv qatlami esa oʻqituvchining savol strategiyasi, topshiriq dizayni, oʻquv hamkorligi va refleksiyaning tashkil etish orqali analitik harakatlarni faollashtiradigan shartlarni oʻz ichiga oladi.

Topshiriqlar dizayni boʻyicha natijalarda analitik faoliyatni yuzaga chiqaradigan uch turdagi vazifalar ajratildi.

Birinchi tur dalillarga tayangan ajratish vazifalari boʻlib, oʻquvchi qoida yoki mezonni qoʻllab, matndan muayyan birliklarni topadi va tanlovini asoslaydi. Bunda “topish” emas, balki “Nega shuni tanladim?” komponenti markazga chiqadi.

Ikkinchi tur transformatsion vazifalar boʻlib, oʻquvchi birlikni oʻzgartiradi, keyin esa maʼno va uslubiy oqibatni tahlil qiladi. Masalan, gap boʻlaklari oʻrni almashganda urgʻu va maʼno soyasi qanday siljishi, sinonim tanlanganda pragmatik taʼsir qanday oʻzgarishi aniqlanadi.

Uchinchi tur interpretativ vazifalar boʻlib, oʻquvchi matnning kompozitsion boʻlaklari, bogʻlanish vositalari, muallif pozitsiyasi va dalillash usulini tahlil qilib, xulosani matn ichidagi koʻrsatkichlar bilan isbotlaydi. Ushbu uch turdagi vazifalar bir dars doirasida ketma-ket qoʻllanganda, oʻquvchi tahlilni “qoidani tekshirish” amali sifatida emas, balki maʼno qurish va asoslash jarayoni sifatida oʻzlashtirishi kuzatildi.

Baholash mezonlari boʻyicha natijalar analitik faoliyatning oʻlchanadigan indikatorlarini belgilash imkonini berdi.

Birinchi indikator termin va tushunchalardan toʻgʻri foydalanish emas, balki ularni dalillashda qoʻllay olish qobiliyati sifatida talqin qilindi.

Ikkinchi indikator tahlilning toʻliqligi boʻlib, oʻquvchi faqat bitta belgi bilan cheklanmay, kamida ikki–uchta lingvistik koʻrsatkichni uygʻun ravishda qoʻllaganida yuqori daraja qayd etiladi.

Uchinchi indikator mantiqiy izchillik boʻlib, xulosa dalillardan kelib chiqishi, qarama-qarshi misol keltirilganda uni inkor etish yoki cheklash orqali asoslay olishi bilan belgilanadi.

Toʻrtinchi indikator transfer boʻlib, oʻquvchi oʻrgangan tahlil usulini yangi matn, yangi janr yoki yangi kommunikativ vaziyatga koʻchira oladi.

Natijalar shuni koʻrsatdiki, analitik faoliyatni tashkil etish imkoniyatlari ayniqsa matn bilan ishlash bloklarida kengayadi, chunki matn oʻzida morfologik va sintaktik hodisalarni funksional birlikda namoyon qiladi. Shu orqali formal tahlil va kommunikativ talqin oʻrtasidagi uzilish bartaraf etiladi.

Olingan natijalar ona tili taʼlimini faoliyat sifatida tashkil etish haqidagi qarashlar bilan uygʻunlashadi, chunki tahlil koʻnikmasi tayyor bilimni qabul qilishdan koʻra, oʻquvchining fikrlash harakatlari orqali shakllanadi. Metodik adabiyotlarda muammoli taʼlim elementlari, savolning ochiq turi va refleksiyaning didaktik roli taʼkidlanadi. Ushbu tadqiqotda taklif etilgan model aynan shu elementlarni lingvistik mazmun bilan tizimli bogʻlashga yoʻnaltirilgan ^[3].

Shuningdek, ona tili taʼlimida matn markaziy birlik sifatida qaralishi kerakligi haqidagi yondashuvlar ham mavjud. Ular matnni faqat oʻqish materiali emas, balki til tizimini namoyon qiladigan laboratoriya sifatida talqin qiladi ^[4].

Natijalar matn tahlilini morfologik va sintaktik tahlil bilan integratsiyalash oʻquvchining analitik harakatlarini tabiiy ravishda kuchaytirishini koʻrsatadi: oʻquvchi birlikni ajratish bilan cheklanmay, uning matndagi vazifasini izohlashga oʻtadi.

Natijalarning amaliy ahamiyati shundaki, dars dizaynida “qoidani oʻrgatish”dan “qoidani kashf etish va asoslash”ga oʻtish mexanizmi aniqlashtirildi. Bunda oʻqituvchining savol-javob strategiyasi hal qiluvchi omil boʻlib chiqadi: yopiq savollar tahlilni qisqartirsa, ochiq savollar va dalil talab qiluvchi yoʻnaltiruvchi savollar oʻquvchini izohlashga undaydi. Baholashda ham anʼanaviy “toʻgʻri–notoʻgʻri” mezonni oʻrniga dalil sifati, koʻrsatkichlar soni va mantiqiy izchillik mezonlarini qoʻllash oʻquvchini tahliliy yozuvga, asosli ogʻzaki javob berishga yoʻnaltiradi. Shu bilan birga, tadqiqotning ayrim cheklovlari ham mavjud:

- *birinchidan*, topshiriqlar korpusi barcha sinflar va barcha darsliklar kesimida toʻliq qamrab olinmagan;
- *ikkinchidan*, kuzatuv yozuvlari turli maktablar boʻyicha bir xil intensivlikda toʻplangan emas;



- *uchinchidan*, natijalar ko'proq didaktik modellashtirish va sifat tahliliga tayanganligi sababli, keng miqyosli eksperimental tekshiruv talab etiladi

Kelgusida analitik faoliyat indikatorlari bo'yicha standartlashtirilgan rubrikalarni ishlab chiqish, ularning ishonchligi va validligini statistik sinovdan o'tkazish, shuningdek, raqamli ta'lim muhitida analitik topshiriqlarni adaptiv tarzda taqdim etish imkoniyatlarini o'rganish maqsadga muvofiqdir^[7].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot ona tili darslarida analitik faoliyatni tashkil etish imkoniyatlari keng va metodik jihatdan boshqariladigan jarayon ekanligini ko'rsatdi. Analitik faoliyatni tizimli shakllantirish uchun til birliklarini alohida-alohida o'rgatishdan ko'ra, ularni matn doirasida funksional birlik sifatida tahlil qilish, tahlil amallarini kuzatishdan dalillash va transfergacha bo'lgan ketma-ketlik asosida rejalashtirish, topshiriqlarni ajratish, transformatsiya va interpretatsiya yo'nalishlarida muvozanatli qurish zarur. Taklif etilgan integrativ model analitik faoliyatning lingvistik mazmun, kognitiv amallar va didaktik boshqaruv qatlamlarini birlashtirib, dars dizaynini aniq indikatorlar bilan bog'lash imkonini beradi. Mezonli baholashning dalil sifati va mantiqiy izchillikka tayangan mezonlari o'quvchining tahliliy fikrlashini rag'batlantiradi hamda ona tili ta'limining amaliy natijadorligini oshiradi. Kelgusida ushbu modelni turli sinf bosqichlari va turli janrdagi matnlar kesimida tajriba-sinovdan o'tkazish orqali uning samaradorligini empirik jihatdan mustahkamlash maqsadga muvofiqdir.

Ona tili darslarida analitik faoliyatni tizimli tashkil etish o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, dalillarga asoslangan tahlil qilish va umumlashtirish ko'nikmalarini samarali rivojlantiradi. Taklif etilgan metodik yondashuvlar ta'lim jarayonining sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Yo'ldoshev J.G., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari: o'quv qo'llanma. – Toshkent: O'qituvchi, 2004. – 256 b.
2. Qosimova K., Matjonov S., Gulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: Noshir, 2009. – 352 b.
3. Беспалько В.П. Слагаемые педагогической технологии. – Москва: Педагогика, 1989. – 192 с.
4. Львов М.Р. Методика преподавания русского языка в начальных классах. – Москва: Академия, 2007. – 464 с.
5. Halliday M.A.K., Hasan R. Cohesion in English. – London: Longman, 1976. – 374 p.
6. Hattie J. Visible Learning: A Synthesis of Over 800 Meta-Analyses Relating to Achievement. – London: Routledge, 2009. – 392 p.
7. Anderson L.W., Krathwohl D.R. A Taxonomy for Learning, Teaching, and Assessing: A Revision of Bloom's Taxonomy of Educational Objectives. – New York: Longman, 2001. – 352 p.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №5(5)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.